

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARDА TAYANCH  
KOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISH**

**Quvandiqov Bahodir Ro'zimurotovich**

*Samarqand viloyati Narpay tumani*

*64- umumta'lism maktabi*

*Matematika fani o'qituvchisi*

Matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga yondashishdan voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytirish davr talabi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasida o'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'limning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir.

Odatda muammoli vaziyat vujudga kelganda odam favqulodda hech kutilmagan, notanish, tushunilishi murakkab bo'lgan, noma'lum narsa va hodisalar bilan uchrashadi. Aqliy zo'r berish natijasida iroda sifatlarini ishga solish orqali unozarali vaziyat anglashilgan masalaga aylanadi.

O'zlashtirishning past bo'lishi, aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi. Sinf rahbarining va fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o'quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog'liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishslash.
3. Pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik, saranjomlikka o'rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni yengish.
6. O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish. Bu o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'g'ri almashtirib borilishidir.
7. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish. O'rtoqlarcha o'zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

8. Sinf o'qituvchilari bilan hamkorlik. Sinf rahbari ta'lif-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

**Kommunikativ kompetensiya:**

A2 - matematikaga oid terminlarning ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy oladi, so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq, ravshan, fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi. matematikaga oid audiomatnni tinglab, videotasvirlarni ko'rib tushinadi, tegishli munosabat bildirib, matematik matn ma'nosini qayta so'zlash va matematik qoidalarni yoddan ifodali aytga oladi.

A2+ mavzudan kelib chiqqan holda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda tushuntirishda o'zaro muloqotga kirisha oladi, muloqotda muomala madaniyatiga amal qila oladi; matematik muammoni hamkorlikda yechganda jamoada samarali ishlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, sinf o'qituvchisining asosiy vazifasi har bir o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa, bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash, uy vazifalarini bajarishda rioya qilishi lozim bo'lgan intizom, olgan bilimlarini amalda qo'llash kabi zarur sifatlarni shakllantirish katta ahamiyatga egadir.